

№2

FEVRA
2025

MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
401 sahifa, fevral, 2025-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari	17
Xolmurzayev Sobir Nazarovich	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education	29
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
Normamatov Ne'mat Daminovich	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
Hatidje Nasirova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida	70
Sayfulina Alfira Feratovna	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
Suvonov Hasan Sherboyevich	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
Алишев Шеркузи Абдуманнонович	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish	91
Tolibboyev Samad Tolibboy o'g'li	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari	99
Umirov Abdusalom To'rayevich	
IoTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish	105
Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar	110
Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Sug'urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish	120
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
Muxiddin Eshmuradov	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
Sharofiddin Ismatov Asatulloevich	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari	137
Jo'rayev Xusan Atamuratovich	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
Dilshod To'rayev	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
Salomat Norova	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlar.....	177
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	189
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi.....	196
Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
Rajabbaeva Dildora Zakirovna	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
Махмудова Гулжахон Нематджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	220
Sadriddinova Nigora Khusniddinovna	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития.....	236
Киличева Ф.Б.	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
Muxitdinov Ulugbek Diyarovich	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli.....	260
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi	264
Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari.....	278
Rustamov Eldor Baratovich	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari.....	285
Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari.....	291
Xurramova Madina Mansur qizi	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar.....	300
Qurbonov Samandar Pulatovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari	309
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning o'rni	322
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li	
Korxonalarda qimmatli qog'ozlar audit masalalarini rivojlantirish	327
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari	335
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Turizmda transport logistikasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	340
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Sayohatchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish: raqamli xavfsizlik va qonunchilik o'zaro ta'siri	345
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Yangi konstruktiviy aylanuvchi stolga ega tikuv mashinasida tajribalar tahlili	351
Amonov Abdurahmon Rafiq o'g'li, Muxamedjanov Mironshoh Mansurjon o'g'li	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasi	356
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
Пути обеспечения инклюзивного роста республики узбекистан	363
Аскарова Мавлуда Турабовна	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili	372
Baxriddinov Sharofiddin	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini tashkil etish uslubiyatining o'ziga xos xususiyatlari	382
Urazaliev Kamoliddin Tajikulovich	
Oliy ta'lim muassasalarida budget mablag'laridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslari.....	389
Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li	
Sug'urta institutlarining innovatsion yo'nalishlari: nazariy va uslubiy asoslar.....	394
Sherov Sanjar Radjabovich	

SUG'URTA INSTITUTLARINING INNOVATSION YO'NALISHLARI: NAZARIY VA USLUBIY ASOSLAR

Sherov Sanjar Radjabovich

PhD, dotsent

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta institutlarida innovatsion yo'nalishlarning nazariy va uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida innovatsion faoliyatning mohiyati, sug'urta sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (R&D), inson kapitalining roli, shuningdek, insurtech hamkorlik mexanizmlari va normativ-huquqiy muvofiqlik masalalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sug'urta institutlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni samarali boshqarishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: sug'urta instituti, sug'urta tizimi, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, innovatsiya, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of innovative directions in the development of insurance institutions. The study examines the essence of innovative activity, the implementation of digital technologies in the insurance sector, research and development activities (R&D), the role of human capital, as well as insurtech cooperation mechanisms and regulatory compliance frameworks. The research findings substantiate the importance of innovative approaches in ensuring the financial stability of insurance institutions and effective risk management.

Keywords: insurance institution, insurance system, risk management, financial stability, innovation, digital technologies.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и методологические основы инновационных направлений в деятельности страховых институтов. В ходе исследования рассматриваются сущность инновационной деятельности, внедрение цифровых технологий в страховой сфере, научно-исследовательские и опытно-конструкторские разработки (R&D), роль человеческого капитала, а также механизмы insurtech-сотрудничества и нормативно-правового соответствия. Полученные результаты обосновывают значение инновационных подходов в обеспечении финансовой устойчивости страховых институтов и эффективном управлении рисками.

Ключевые слова: страховой институт, страховая система, управление рисками, финансовая устойчивость, инновации, цифровые технологии.

KIRISH

Sug'urta biznesi kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan aniq bashorat qilish murakkab bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy beqarorlik, texnologik taraqqiyot, iqlim o'zgarishlari hamda global xavf-xatarlarning ortib borishi sug'urta kompaniyalari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, sug'urta institutlaridan risklarni boshqarish bo'yicha yanada takomillashgan yondashuvlarni talab etmoqda. Mazkur sharoitda sug'urta bozori ishtirokchilarining barqaror faoliyat yuritishi nafaqat moliyaviy resurslarga, balki innovatsion salohiyat va zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga ham bevosita bog'liq bo'lib bormoqda.



Bugungi kunda sug'urta institutlari o'z faoliyatini samarali tashkil etish, risklarni aniqlash va baholash aniqligini oshirish, shuningdek, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Raqamli sug'urta modellari, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish texnologiyalari, InsurTech platformalari hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari sug'urta faoliyatining barcha bosqichlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonlar sug'urta mahsulotlarini mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish sug'urta institutlari oldiga yangi nazariy va uslubiy masalalarni ham qo'ymoqda. Xususan, innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash, risklarni boshqarishning zamonaviy modellarini ishlab chiqish, raqamli muhitda mijozlar xulq-atvorini tahlil qilish hamda sug'urta xizmatlarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur sharoitda sug'urta institutlarining innovatsion yo'nalishlarini nazariy jihatdan asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etishning uslubiy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu tadqiqot sug'urta sohasida innovatsion rivojlanishning mohiyati, asosiy yo'nalishlari va ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Jilkina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug'urta xizmatlari bozorida innovatsion jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq muammolar bir qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, sug'urta bozori infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, sug'urta sohasini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik rejalarning mavjud emasligi, mazkur sohaga yo'naltirilayotgan investitsiya oqimlarining cheklanganligi, innovatsion faoliyat doirasida malakali kadrlar yetishmovchiligi hamda jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga oid noaniqliklarning yuqori darajada bo'lishi ushbu muammolarning asosiy omillari sifatida ko'rsatib o'tiladi [1].

A. Fomichevning fikriga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini boshqarish jarayoni moslashuvchan bo'lishi hamda sug'urta faoliyatining hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur [2]. Olim ta'kidlashicha, innovatsion yondashuvlar sug'urta bozorining o'ziga xos sharoitlariga mos ravishda joriy etilgandagina ularning samaradorligi ta'minlanadi.

A. Tsiganovning ta'kidlashicha, sug'urta faoliyatida axborot texnologiyalarining roli tobora ortib borishi IT-infratuzilmani rivojlantirish uchun katta hajmdagi moliyaviy xarajatlarni talab etadi [3]. Muallif sug'urta bozorini raqamlashtirish jarayonida texnologik yangilanishlar nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki boshqaruv va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilishini qayd etadi.

Ilmiy adabiyotlarda sug'urtada innovatsiyalar muammosiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Jumladan, D. Bryzgalov [4], S. Aksyutina [5], A. Yakushin [6], B. Nikoletti [7], N. Savvina [8], P. Dessilas va M. Sako [9], R. Person [10], Lado va Maideu-Olivares [11] kabi mualliflarning ishlari ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar sirasiga kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda tizimli tahlil metodlari keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari uchun rentabellikka putur yetkazmagan holda barqaror o'sishga erishish tobora murakkab vazifaga aylanib bormoqda. Murakkab iqtisodiy va geosiyosiy vaziyatlar ayrim risk profillariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan bir paytda, mijozlar sug'urta mahsulotlarining o'z ehtiyojlari va individual xususiyatlariga mos holda yaratilishini kutmoqdalar. Shu bilan birga, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va bozorda yangi ishtirokchilar ekotizimining shakllanishi mijozlarni jalb etish va saqlab qolish mexanizmlarini tubdan o'zgartirish xavfini yuzaga keltirmoqda. Natijada, sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshlikni mustahkamlash maqsadida innovatsion yo'nalishdagi strategik qarorlarni qabul qilishga majbur bo'lmoqdalar.

Mazkur muammolarning murakkabligi COVID-19 koronavirus pandemiyasi va geosiyosiy keskinliklar ta'siri ostida yanada kuchaydi. Ushbu sharoitda raqamli transformatsiya sug'urta kompaniyalari uchun strategik ahamiyat kasb etib, bir tomondan, yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bunda sug'urtalanuvchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish va bozor holatini inobatga olgan holda kompleks hamda mijozga yo'naltirilgan raqamli strategiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar avval raqamli



(“digital”) biznes tushunchasi asosan elektron tijorat bilan bog'langan bo'lsa, hozirgi bosqichda sug'urta sohasida ijtimoiy tarmoqlar, smartfonlar, kompyuter texnikasi, maxsus dasturiy ta'minotlar, boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash tizimlari hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish ko'lami sezilarli darajada kengaydi. Ushbu texnologiyalar sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, sotish, xizmat ko'rsatish va risklarni boshqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirib, raqamli innovatsiyalarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tarixan innovatsiya tushunchasi uzoq vaqt davomida asosan texnik xarakterga ega bo'lib, sanoat va ishlab chiqarish sohalaridagi yutuqlarni tavsiflashda qo'llanilgan. Biroq jahon moliya bozorining jadal rivojlanishi natijasida innovatsion yondashuvlar yangi moliyaviy instrumentlarni yaratish, B2B (biznes–biznes), B2P (biznes–jamiyat) va B2C (biznes–iste'molchi) o'zaro munosabatlarini takomillashtirish, shuningdek, kompaniyalarning tashkiliy tuzilmalari va boshqaruv modellarini optimallashtirishda keng qo'llanila boshladi. Sug'urta bozori ham ushbu jarayondan chetda qolmay, innovatsion rivojlanishning muhim maydoniga aylandi.

Hozirgi kunda sug'urta institutlarida innovatsiyalarni joriy etishning asosiy sababi shundan iboratki, iste'molchilarning raqamli kanallar orqali sug'urta polisini sotib olishga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda, ya'ni veb-sayt va mobil ilovalar orqali polis olish ulushi oshib, kompaniyalarni tezkor, qulay va onlayn xizmatlar taqdim etishga majbur qilmoqda. Quyidagi 1-jadvalda sug'urta polisini sotib olish kanalini tanlashda iste'molchilar afzalliklari bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalariga oid ma'lumotlar keltirilgan(1-jadval).

1-jadval. Sug'urta polisini sotib olish kanalini tanlashda iste'molchilar afzalliklari bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari (foizda)[12]

Toifa	Avtomobil sug'urtasi	Ko'chmas mulk sug'urtasi	Sayohat sug'urtasi	Ipoteka sug'urtasi	Sog'liq sug'urtasi
Jami	58	28	48	32	15
Ofis orqali	30	17	14	20	8
Vositachilar orqali	15	8	11	8	5
Veb-sayt orqali	11	2	17	3	2
Mobil ilova orqali	2	1	6	1	0

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, avtomobil sug'urtasi respondentlar orasida eng talab qilinadigan mahsulot bo'lib, jami 58 foiz iste'molchi ushbu turdagi sug'urtani tanlagan. Sayohat sug'urtasiga bo'lgan talab ham sezilarli darajada yuqori bo'lib, jami 48 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, ipoteka va sog'liq sug'urtasiga bo'lgan talab nisbatan past bo'lib, mos ravishda 32 va 15 foizni tashkil etadi. Ushbu tendensiya sug'urta bozorida avtomobil va sayohat sug'urtasi mahsulotlariga bo'lgan ustuvor e'tiborni ko'rsatadi.


Sug'urta polislarini sotib olishda ofis orqali kanallar eng ko'p tanlangan bo'lib, ayniqsa, avtomobil sug'urtasida 30 foiz va ipoteka sug'urtasida 20 foiz respondentlar tomonidan afzal ko'rilgani bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, vositachilar orqali sotib olish ulushi nisbatan past bo'lib, avtomobil sug'urtasida 15 foiz, sayohat sug'urtasida esa 11 foizni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlar an'anaviy ofis va agentlik kanallari hozirgi kunga qadar sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Biroq jadval ko'rsatkichlariga ko'ra, veb-sayt va mobil ilovalar orqali polis sotib olish ulushi past bo'lsa-da, ularning o'sish tendensiyasi sezilmoqda. Masalan, sayohat sug'urtasini veb-sayt orqali sotib olish 17 foizni, mobil ilovalar orqali esa 6 foizni tashkil etadi. Bu raqamli platformalarning iste'molchilar orasida tobora ommalashayotganini hamda raqamli transformatsiyaning sug'urta bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, sug'urta kompaniyalari uchun ushbu natijalar raqamli xizmatlarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Onlayn va mobil kanallar orqali polis sotib olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kompaniyalar mijozlar uchun qulaylik yaratishi, yangi segmentlarni jalb qilishi va raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin. Ayniqsa, avtomobil va sayohat sug'urtasida raqamli strategiyalarni rivojlantirish strategik afzallik beradi.



Ilmiy adabiyotlarda sug'urta sohasidagi innovatsiyalar, avvalo, mahsulot va xizmatlarning yangiligi darajasiga ko'ra tasniflanadi. Ushbu yondashuvga muvofiq, innovatsiyalar mutlaqo yangi sug'urta mahsulotlari, qisman takomillashtirilgan sug'urta mahsulotlari hamda sotish va tarqatish tizimi nuqtayi nazaridan yangi hisoblangan sug'urta mahsulotlari kabi alohida guruhlariga ajratiladi (1–rasm). Shu tariqa, raqamli kanallar va mahsulot innovatsiyalari bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida sug'urta kompaniyalarining samarali faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.



1–rasm. Sug'urta sohasidagi innovatsiyalarning mahsulot va xizmatlar yangiligi darajasiga ko'ra tasnifi¹

Ilmiy yondashuvlarga ko'ra, tub innovatsion sug'urta mahsulotlari sifat jihatidan mutlaqo yangi bo'lib, ular ilgari amaliyotda qo'llanilmagan sug'urta shartlari, tarif siyosati va hujjatlashtirish mexanizmlariga asoslanadi hamda amaldagi milliy sug'urta tizimida huquqiy maqomga ega emasligi bilan ajralib turadi. Qisman innovatsion mahsulotlar esa mavjud sug'urta modellarini takomillashtirish orqali shakllanib, sug'urtalash obyekti doirasi, risklarni aniqlash va baholash usullari yoki sug'urta qoplamasi parametrlaridagi yangilanishlar bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, sotish infratuzilmasi jihatidan innovatsion hisoblangan sug'urta mahsulotlari mazmunan an'anaviy bo'lishi mumkin, biroq ularni iste'molchiga yetkazishda raqamli platformalar va boshqa muqobil tarqatish kanallaridan foydalanilishi bilan farqlanadi.

Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilayotgan innovatsion mahsulotlarning huquqiy jihatdan yetarli darajada himoyalanganligi ularning qisqa muddat ichida bozor ishtirokchilari tomonidan nusxalanishiga olib kelmoqda. Bu holat sug'urta tashkilotlari uchun uzoq muddatli va barqaror raqobat ustunligini ta'minlash imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada, sug'urta kompaniyalari bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish, shuningdek, biznes-jarayonlarni moslashuvchan va samarali boshqarish orqali raqobatbardoshlikni saqlab qolishga majbur bo'lmoqda. Bunday sharoitda innovatsion faoliyat faqat yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish bilan cheklanib qolmasdan, balki boshqaruv tizimini takomillashtirish, marketing strategiyalarini rivojlantirish hamda mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni raqamlashtirishni ham o'z ichiga oluvchi kompleks jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Sug'urta sohasida innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlar, odatda, sug'urta kompaniyalari tomonidan yangi texnologiyalar, mahsulotlar, jarayonlar va biznes-modellarni ishlab chiqish, joriy etish hamda amaliyotga tatbiq etish uchun yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarni anglatadi. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, mijozlar talablarining o'zgarishi va raqobat bosimining kuchayishi sharoitida ushbu xarajatlar sug'urta tashkilotlari faoliyatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu jihatlar sug'urta sohasida innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish axborot texnologiyalariga investitsiyalar kiritish, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda insurtech kompaniyalar bilan hamkorlik qilishni talab etadi (2–jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

2-jadval. Sug'urta sohasida innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlar²

№	Xarajat yo'nalishi	Mazmuni va investitsion faoliyat bilan bog'liqligi
1	Axborot texnologiyalari va raqamli infratuzilma xarajatlari	Sug'urta kompaniyalari tomonidan asosiy IT tizimlarini modernizatsiya qilish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, blokcheyn va kiberxavfsizlik yechimlariga yo'naltiriladigan mablag'lar. Ushbu xarajatlar operatsion samaradorlikni oshirish va investitsiya risklarini aniqroq baholash imkonini beradi.
2	Ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalar (R&D)	Yangi sug'urta mahsulotlari (masalan, usage-based insurance, parametrik sug'urta, takaful)ni ishlab chiqish, aktuariy modelashtirish va risklarni prognozlash bo'yicha tadqiqotlarga sarflanadigan xarajatlar. Bu xarajatlar investitsiya portfelini kengaytirishga xizmat qiladi.
3	Kadrlar va malaka oshirish xarajatlari	IT mutaxassislari, ma'lumotlar tahlilchilari, aktuariylar va innovatsion menejerlarni jalb qilish hamda xodimlarni qayta tayyorlashga yo'naltirilgan mablag'lar. Inson kapitaliga investitsiyalar innovatsion faoliyatning asosiy omili hisoblanadi.
4	Hamkorlik va insurtech loyihalar xarajatlari	Insurtech startaplar, texnologik kompaniyalar va konsalting tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, litsenziyalar va platformalardan foydalanish xarajatlari. Bu bank va sug'urta kompaniyalariga investitsion faoliyatni tezroq va samaraliroq amalga oshirish imkonini beradi.
5	Normativ-huquqiy va muvofiqlik (compliance) xarajatlari	Raqamli sug'urta, ma'lumotlarni himoyalash va kiberxavfsizlik bo'yicha yangi talablarni joriy etish bilan bog'liq huquqiy, audit va moslashuv xarajatlari. Bu investitsiya barqarorligi va bozor ishonchini ta'minlaydi.
6	Marketing va mijozlarni xabardor qilish xarajatlari	Innovatsion sug'urta mahsulotlarini targ'ib qilish, raqamli kanallar orqali sotish va mijozlarni o'qitish bo'yicha xarajatlar. Bu sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni oshirib, investitsion daromadlarning ko'payishiga olib keladi.

Sug'urta sohasida innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlar sug'urta kompaniyalari uchun oddiy xarajat emas, balki uzoq muddatli investitsiya sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar, inson kapitali va innovatsion mahsulotlarga yo'naltirilgan mablag'lar sug'urta tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirib, risklarni samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ushbu xarajatlar dastlab qo'shimcha moliyaviy yuk sifatida namoyon bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda sug'urta kompaniyalarining operatsion samaradorligini oshirish, bozorga moslashuvchanligini kuchaytirish va barqaror raqobat ustunligini shakllantirishda muhim investitsion omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta sohasida innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlar bugungi kunda sug'urta kompaniyalari faoliyatida oddiy operatsion xarajatlar sifatida emas, balki uzoq muddatli strategik investitsiyalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, mijozlar ehtiyojlarining individuallashuvi hamda global iqtisodiy va geosiyosiy omillarning kuchayishi sug'urta kompaniyalarini innovatsion rivojlanishga majbur qilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va raqamli infratuzilma, ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalar, inson kapitaliga investitsiyalar hamda insurtech loyihalar bilan hamkorlik sug'urta tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sug'urta sohasida innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlar sug'urta kompaniyalari faoliyatida oddiy operatsion xarajatlar sifatida emas, balki uzoq muddatli strategik investitsiyalar sifatida qaralishi lozim, chunki ushbu mablag'lar raqamli transformatsiyani jadallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda sug'urta xizmatlarining sifat va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar va inson kapitaliga

2 Muallif ishlanmasi



yo'naltirilgan mablag'lar sug'urta kompaniyalarining operatsion samaradorligini oshirib, risklarni yanada aniqroq baholash va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Bu jarayon sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, ularning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishiga ham xizmat qiladi.

Fikrimizcha, ushbu yo'nalishlarga sarflangan mablag'lar sug'urta kompaniyalarining risklarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va bozor ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, sug'urta sohasida innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlarni strategik yondashuv asosida rejalashtirish va samarali boshqarish sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жилкина А. Н. Страхование как объект управления инновационным развитием // Проблемы современной экономики. 2012. № 1. С. 444–446.
2. Фомичев А. А. Страховые услуги в системе финансовых услуг // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 1–1. С. 664.
3. Цыганов А. А., Брызгалов Д. В. Цифровизация страхового рынка: задачи, проблемы и перспективы // Экономика. Налоги. Право. 2018. Т. 11. № 2. С. 111–120. DOI: 10.26794/1999-849X-2018-11-2-111-120
4. Брызгалов Д. В. Цифровизация андеррайтинга на российском страховом рынке // ЭТАП: экономическая теория, анализ, практика. 2020. № 2. С. 90–102. DOI: 10.24411/2071-6435-2020-10015
5. Аксютин С. В. Трансформация страхования: инновационные продукты и технологии // Экономика, предпринимательство и право. 2020. Т. 10. № 2. С. 395–410.
6. Якушин А. Б. Страховая телематика и её роль в развитии рынка добровольного страхования Российской Федерации // Страховое дело. 2016. № 5 (278). С. 25–29.
7. Nicoletti B. Digital Insurance: Business Innovation in the Post-Crisis Era. London: Palgrave Macmillan, 2016. 328 p. (Palgrave Studies in Financial Services Technology).
8. Саввина Н. Е. Инновации в российском страховании: мода или необходимость? // Вестник Финансового университета. 2014. № 6 (84). С. 74–83.
9. Desyllas P., Sako M. Profiting from business model innovation: Evidence from Pay-As-You-Drive auto insurance // Research Policy. 2013. Vol. 42. No. 1. P. 101–116. DOI: 10.1016/j.respol.2012.05.008
10. Pearson R. Towards an historical model of services innovation: The case of the insurance industry, 1700–1914 // The Economic History Review. 1997. Vol. 50. No. 2. P. 235–256. DOI: 10.1111/1468-0289.00053
11. Lado N., Maydeu-Olivares A. Exploring the link between market orientation and innovation in the European and US insurance markets // International Marketing Review. 2001. Vol. 18. No. 2. P. 130–145. DOI: 10.1108/02651330110389972
12. Хабаров В. И., Колбина М. С., Кушелев И. Ю. Инновационная деятельность страховых организаций: курс развития // Экономика и управление. 2023. Т. 29. № 2. С. 188–199. DOI: 10.35854/1998-1627-2023-2-188-199

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100